# QORAQALPOGʻISTON RESPUBLIKASINING TASHQI SAVDO AYLANMASI

(*2019 yil yanvar*)

2019 yil yanvar oyi yakunlariga koʻra, respublikada tashqi savdo aylanmasi 65,9 mln. AQSh dollarini tashkil etib, oʻtgan yilning shu davriga nisbatan 27,7 %ga oʻsdi. Shu jumladan, eksport hajmi 34,4 mln. AQSh dollarga va import hajmi 31,6 mln. AQSh dollariga etdi. Tashqi savdo saldosi 2,3 mln. AQSh dollarini tashkil qildi.

## Qoraqalpogʻiston Respublikasining tashqi savdo aylanmasi

(*mln. AQSh dollari*)




Joriy yilning yanvar oyida, respublika tashqi savdo aylanmasida MDH davlatlarining ulushi 34,6% ni tashkil etib, oʻtgan yilning shu davriga nisbatan 97,8 % ni tashkil qilgan, boshqa davlatlarning ulushi esa 65,4% boʻlib, oʻtgan yilning shu davriga nisbatan 52,3% ga oshgan. Shuningdek, eksport hajmida MDH davlatlari 54,7 %ni, boshqa davlatlar 45,3%ni va import hajmida MDH davlatlari 12,7 %ni, boshqa davlatlar 87,3%ni tashkil qildi.

## 2019 yil yanvarida respublika tashqi savdo aylanmasida MDH va boshqa davlatlarning ulushi

*(umumiy hajmga nisbatan foiz hisobida)*




Shu bilan birga ta'kidlab o'tish kerakki, 2019 yilning yanvar oyida eksport qilingan tovar va xizmatlar, dekabr oyiga nisbatan 1,5 mln. AQSh dollarga kamroq eksport qilindi va 34,4 mln. AQSh dollarini tashkil etdi. Tovar va xizmatlar importi hajmi esa 31,6 mln. AQSh dollarini tashkil qilgan bo'lib, bu esa dekabr oyiga nisbatan 6,9 mln. AQSh dollariga kamroqdir.

2019 yil yanvar oyida respublika tashqi savdo aylanmasida yuqori ulushga ega davlatlar ketma-ketligi qo`yidagicha ko`rinish olgan:

## Respublika tashqi savdo aylanmasida yuqori ulushga ega davlatlar

(*mln. AQSh dollari*)

| Davlat nomi | Tashqi savdo aylanmasi | Eksport | Import | Tashqi savdo aylanmasi | |
|---|---|---|---|---|---|
| | | | | ulushi, % | o'sish sur'ati, % |
| **Xitoy** | 17,3 | 6,1 | 11,2 | 26,3 | 153,4 |
| **Rossiya** | 15,3 | 12,8 | 2,4 | 23,2 | 126,9 |
| **Turkiya** | 8,5 | 6,5 | 2,0 | 12,9 | 119,4 |
| **Buyuk Britaniya** | 7,1 | - | 7,1 | 10,8 | - |

(*mln. AQSh dollari*)

| Davlat nomi | Tashqi savdo aylanmasi | Eksport | Import | Tashqi savdo aylanmasi | |
|---|---|---|---|---|---|
| | | | | ulushi, % | o'sish sur'ati, % |
| **Qozog'iston** | 5,9 | 4,6 | 1,3 | 8,9 | 141,2 |
| **Koreya Respublikasi** | 3,4 | 0,8 | 2,6 | 5,1 | 95,1 b |
| **Latviya** | 1,6 | 1,6 | - | 2,5 | 72,7 |
| **Litva** | 1,6 | - | 1,6 | 2,4 | - |
| **Germaniya** | 0,9 | - | 0,9 | 1,3 | - |
| **Qirg'iziston** | 0,7 | 0,7 | 0,1 | 1,1 | 3,5 b |
| **Estoniya** | 0,5 | 0,2 | 0,3 | 0,8 | 162,9 |
| **BAA** | 0,5 | - | 0,5 | 0,7 | 12994,6 b |
| **Vietnam** | 0,4 | - | 0,4 | 0,6 | - |

Respublikamizda tashqi savdoni qo'llab-quvvatlash hamda MDH davlatlari bilan ushbu sohadagi hamkorlikni yanada mustahkamlash bo'yicha olib borilayotgan chora-tadbirlar natijasida 2019 yil yanvar oyida tashqi savdo aylanmasida MDH davlatlarining ulushi 34,6 % ni tashkil etdi hamda tashqi savdo aylanmasi o'tgan yilning shu davriga nisbatan 97,8 % ni tashkil etdi. Boshqa xorijiy davlatlarning respublika tashqi savdo aylanmasidagi ulushi 2018 yilning yanvar oyida 54,8 %ni tashkil qilgan bo'lsa, joriy yilning ushbu davrida esa tashqi savdo aylanmasidagi ulushi 65,4 % ga etdi.

### Qoraqalpog'iston Respublikasining ayrim hamkor davlatlar bilan tashqi savdo aylanmasi dinamikasi

(*mln.AQSh dollari*)

| Davlat nomi | 2017 yil yanvar | 2018 yil yanvar | 2019 yil yanvar |
|---|---|---|---|
| **Xitoy** | **23,6** | **14,5** | **17,3** |
| eksport | 21,3 | 11,3 | 6,1 |

| Davlat nomi | 2017 yil yanvar | 2018 yil yanvar | 2019 yil yanvar |
|---|---|---|---|
| import | 2,3 | 3,2 | 11,2 |
| saldo | 19,0 | 8,1 | -5,1 |
| **Rossiya** | 6,7 | **17,2** | **15,3** |
| eksport | 4,1 | 12,0 | 12,8 |
| import | 2,6 | 5,2 | 2,4 |
| saldo | 1,5 | 6,9 | 10,4 |
| **Turkiya** | **8,9** | **7,9** | **8,5** |
| eksport | 8,8 | 7,1 | 6,5 |
| import | 0,1 | 0,8 | 2,0 |
| saldo | 8,7 | 6,4 | 4,5 |
| **Buyuk Britaniya** | **0,2** | **0,5** | **7,1** |
| eksport | - | - | - |
| import | 0,2 | 0,5 | 7,1 |
| saldo | -0,2 | -0,5 | -7,1 |
| **Qozog‘iston** | **2,7** | **5,4** | **5,9** |
| eksport | 2,7 | 4,1 | 4,6 |
| import | - | 1,3 | 1,3 |
| saldo | 2,7 | 2,9 | 3,3 |
| **Koreya Respublikasi** | **1,2** | **0,1** | **3,4** |
| eksport | 0,1 | 0,04 | 0,8 |
| import | 1,1 | 0,02 | 2,6 |
| saldo | -1,0 | 0,02 | -1,7 |
| **Latviya** | **5,0** | **2,2** | **1,6** |
| eksport | 4,9 | 2,2 | 1,6 |
| import | 0,1 | - | - |
| saldo | 4,8 | 2,2 | 1,6 |

| Davlat nomi | 2017 yil yanvar | 2018 yil yanvar | 2019 yil yanvar |
|---|---|---|---|
| **Litva** | **0,1** | **0,03** | **1,6** |
| eksport | - | - | - |
| import | 0,1 | 0,03 | 1,6 |
| saldo | -0,1 | -0,03 | -1,6 |
| **Germaniya** | **0,1** | **0,3** | **0,9** |
| eksport | - | - | - |
| import | 0,1 | 0,3 | 0,9 |
| saldo | -0,1 | -0,3 | -0,9 |
| **Qirg'iziston** | **0,4** | **0,2** | **0,7** |
| eksport | 0,4 | 0,2 | 0,7 |
| import | - | - | 0,1 |
| saldo | 0,4 | -0,2 | 0,6 |
| **Estoniya** | **-** | **0,3** | **0,5** |
| eksport | - | 0,3 | 0,2 |
| import | - | - | 0,3 |
| saldo | - | -0,3 | -0,1 |
| **BAA** | **0,5** | **0,5** | **0,5** |
| eksport | 0,1 | - | - |
| import | 0,4 | 0,5 | 0,5 |
| saldo | -0,3 | -0,5 | -0,5 |

## EKSPORT

2019 yil yanvar oyida eksport hajmi 34,4 mln. AQSh dollarga teng bo'ldi. Eksport tarkibida tovarlar 99,6 % ulushga ega, bular asosan kimyo mahsulotlari va undan tayyorlangan buyumlar (88,3 %), oziq-ovqat mahsulotlari (4,8 %) guruhlari hissasiga to'g'ri kelmoqda.

### Tovar va hizmatlar eksporti tarkibi
*(mln.AQSh dollari)*

**2018 yil yanvar** — **2019 yil yanvar**




### Tovar va xizmatlar eksporti ulushi (%)



## Eksport tarkibi

| | Jami | | | MDH davlatlari | | | Boshqa davlatlar | | |
|---|---|---|---|---|---|---|---|---|---|
| | mln. AQSh doll. | o‘tgan yilga nisbatan, % | umumiy hajmga nisbatan, % | mln. AQSh doll. | o‘tgan yilga nisbatan, % | umumiy hajmga nisbatan, % | mln. AQSh doll. | o‘tgan yilga nisbatan, % | umumiy hajmga nisbatan, % |
| **Eksport** | 34,4 | 89,4 | 100,0 | 18,8 | 112,6 | 100,0 | 15,6 | 71,6 | 100,0 |
| **Oziq-ovqat mahsulotlari** | 1,6 | 74,8 | 4,8 | 0,2 | 40,0 | 1,1 | 1,4 | 82,4 | 8,9 |
| **Kimyo mahsulotlari va buyumlari** | 30,3 | 88,4 | 88,2 | 17,6 | 112,8 | 93,6 | 12,8 | 68,4 | 82,0 |
| **Energiya manbaalari va neft mahsulotlari** | 0,8 | 97,1 | 2,4 | 0,6 | 6,0 b | 3,2 | 0,2 | 25,0 | 1,3 |
| **Mashina va asbob-uskunalar** | - | - | - | - | - | - | - | - | - |
| **Xizmatlar** | 0,1 | 175,2 | 0,4 | 0,1 | 100,0 | 0,5 | - | - | - |
| **Boshqalar** | 1,4 | 139,3 | 4,2 | 0,3 | 75,0 | 1,6 | 1,2 | 2,0 b | 7,8 |

Xizmatlar eksporti hajmi 0,1 mln. AQSh dollarini yoki jami eksport hajmining 0,4 %ini tashkil etib, o'tgan yilning shu davriga nisbatan 75,2 %ga o'sganligi kuzatildi.

Xizmatlar eksporti tarkibining asosiy ulushi moliyaviy xizmatlar (43,6 %), safarlar (36,5 %) va transport xizmatlari (17,9 %) hissasiga to'g'ri keladi.

**Xizmatlar eksporti tarkibi,** (%)




Tovar va xizmatlar eksporti dinamikasi tahliliga ko'ra, 2019 yilning yanvar oyi mobaynida eksport qilingan tovarlar hajmi, dekabr oyiga nisbatan 1,2 mln. AQSh dollariga kam eksport qilindi va 34,3 mln. AQSh dollarini tashkil etdi. Xizmatlar eksporti esa 0,1 mln. AQSh dollarga etgan.

## Respublika eksportida asosiy hamkor davlatlarning ulushi
*(yanvar)*

**2018 YIL**




**2019 YIL**




Eksport qilinayotgan tovar va xizmatlarning asosiy qismi Turkiya va Rossiya Federatsiyasi hissasiga to'g'ri kelmoqda. Bu esa umumiy eksport hajmining 56,3 % ini tashkil qiladi. Turkiya va Rossiya Federatsiyasiga eksport qilinayotgan tovarlar tarkibiga nazar tashlasak, asosan kimyo mahsulotlari va undan tayyorlangan buyumlaridan iborat ekanligini ko'rishimiz mumkin.

## Qoraqalpog'iston Respublikasining asosiy hamkor davlatlarga amalga oshirgan eksport hajmi

| Davlat nomi | Mln. AQSh doll. | | Ulushi, % | | O'rni | |
|---|---|---|---|---|---|---|
| | 2018 y. | 2019 y. | 2018 y. | 2019 y. | 2018 y. | 2019 y. |
| **Rossiya** | 12,0 | 12,8 | 31,3 | 37,4 | 1 | 1 |
| **Turkiya** | 7,1 | 6,5 | 18,5 | 18,9 | 3 | 2 |
| **Xitoy** | 11,3 | 6,1 | 29,4 | 17,8 | 2 | 3 |
| **Qozog'iston** | 4,1 | 4,6 | 10,8 | 13,3 | 4 | 4 |
| **Latviya** | 2,2 | 1,6 | 5,8 | 4,7 | 5 | 5 |

| | | | | | | |
|---|---|---|---|---|---|---|
| **Koreya Respublikasi** | - | 0,8 | - | 2,4 | - | 6 |
| **Qirg'iziston** | 0,2 | 0,7 | 0,5 | 1,9 | 8 | 7 |
| **Ukraina** | - | 0,4 | - | 1,0 | - | 8 |
| **Tojikiston** | 0,2 | 0,3 | 0,5 | 0,9 | 9 | 9 |
| **Estoniya** | 0,3 | 0,2 | 0,8 | 0,5 | 6 | 10 |
| **Iroq** | 0,2 | 0,2 | 0,6 | 0,4 | 7 | 11 |

## Meva-sabzavot mahsulotlari eksporti

2019 yilning yanvar oyida jami 763,3 tonna meva-sabzavot mahsulotlari 218,1 ming AQSh dollariga eksport qilindi (o'sish sur'ati – 28,4%). Meva-sabzavot mahsulotlarining eksport tarkibiga qaralsa, 2019 yilning yanvar oyida 648,9 tonna sabzavotlar 119 ming AQSh dollariga eksport qilingan.

Shuningdek, 69,9 tonna meva va rezavorlar 63,1 ming AQSh dollariga eksport qilingan bo'lib, eksport hajmi o'tgan yilning mos davriga nisbatan 17,1 tonnaga oshgan.

## Meva-sabzavot mahsulotlarining tarkibi



Shuni aytib o‘tish joizki, mamlakatimizda eksport salohiyatini kengaytirish, yangi bozorlarni o‘zlashtirish natijasida meva-sabzavot mahsulotlari, uzum, poliz, dukkakli ekinlar, shuningdek, quritilgan sabzavot va mevalarni eksport qilish hajmi oshib bormoqda. Jumladan, 2019 yilning yanvar oyida uzum va qovun-tarvuz eksport hajmi 35,9 ming AQSh dollariga etdi (o‘tgan yilning mos davriga nisbatan 50,2 %ga o‘sgan).

## Respublikamizda yetishtirilgan meva va sabzavot mahsulotlarining asosiy bozorlari eksport geografiyasi

| Davlat nomi | 2018 yil yanvar | | | 2019 yil yanvar | | |
|---|---|---|---|---|---|---|
| | tonna | ming AQSh doll. | ulushi, % | tonna | ming AQSh doll. | ulushi, % |
| **Qozog‘iston** | 2532,3 | 459,8 | 60,0 | 440,9 | 163,3 | 74,9 |
| **Ruminiya** | - | - | - | 105,0 | 13,4 | 6,1 |
| **Rossiya** | 20,0 | 36,2 | 4,7 | 37,4 | 25,7 | 11,8 |
| **Turkmaniston** | - | - | - | 180,0 | 15,8 | 7,2 |

## 2019 yil yanvarida meva va sabzavot mahsulotlarining tarkibi

*(umumiy hajmga nisbatan foiz hisobida)*

### 2018 yil




### 2019 yil



# IMPORT

Joriy yilning yanvar oyida import hajmi 31,6 mln. AQSh dollarini tashkil etib, o‘tgan yilning shu davriga nisbatan 2,4 karra o‘sdi. Import tarkibida eng katta ulush mashina va asbob uskunalar (72,2 %), xizmatlar (5,6 %) va oziq-ovqat mahsulotlari (5,3 %) guruhlari hisobiga to‘g‘ri keldi.

**Tovar va xizmatlar importi tarkibi**
(*ming AQSh dollari*)

**2018 yil yanvar**




**2019 yil yanvar**




Oziq-ovqat mahsulotlari
Kimyo mahsulotlari va buyumlari
Energiya manbaalari va neft mahsulotlari
Qora va rangli metallar
Mashina va asbob-uskunalar
Xizmatlar
Boshqalar

**Tovar va xizmatlar importi ulushi** (%)



# Import tarkibi

| | Jami | | | MDH davlatlari | | | Boshqa davlatlar | | |
|---|---|---|---|---|---|---|---|---|---|
| | mln. AQSh doll. | o‘tgan yilga nisbatan, % | umumiy hajmga nisbatan, % | mln. AQSh doll. | o‘tgan yilga nisbatan, % | umumiy hajmga nisbatan, % | mln. AQSh doll. | o‘tgan yilga nisbatan, % | umumiy hajmga nisbatan, % |
| **Import** | 31,6 | 2,4 b | 100 | 4,0 | 60,2 | 100 | 27,6 | 4,2 b | 100 |
| **Oziq-ovqat mahsulotlari** | 1,7 | 2,2 b | 5,3 | 1,6 | 2,1 b | 40 | 0,1 | - | 0,4 |
| **Kimyo mahsulotlari va buyumlari** | 1,1 | 84,7 | 3,5 | 0,1 | 14,8 | 2,5 | 1,0 | 117,7 | 3,6 |
| **Energiya manbaalari va neft mahsulotlari** | - | - | - | - | - | - | - | - | - |
| **Qora va rangli metallar** | 0,3 | 54,4 | 0,9 | - | - | - | 0,3 | 194,8 | 1,1 |
| **Mashina va asbob-uskunalar** | 22,8 | 4,4 b | 72,2 | 0,1 | 31,0 | 2,5 | 22,6 | 4,8 b | 81,9 |
| **Xizmatlar** | 1,8 | 2,9 b | 5,6 | 0,4 | 2,4 b | 10 | 1,4 | 3,1 b | 5,1 |
| **Boshqalar** | 3,9 | 91,6 | 12,5 | 1,8 | 45,3 | 45 | 2,2 | 6,0 b | 7,9 |

## Qoraqalpog‘iston Respublikasiga
## asosiy hamkor davlatlardan amalga oshirilgan import hajmi

| Davlat nomi | Mln. AQSh doll. | | Ulushi, % | | O‘rni | |
|---|---|---|---|---|---|---|
| | 2018 y. | 2019 y. | 2018 y. | 2019 y. | 2018 y. | 2019 y. |
| Xitoy | 3,2 | 11,2 | 24,5 | 35,6 | 2 | 1 |
| Buyuk Britaniya | 0,5 | 7,1 | 3,5 | 22,5 | 6 | 2 |
| Koreya Respublikasi | - | 2,6 | - | 8,1 | - | 3 |
| Rossiya | 5,2 | 2,4 | 39,1 | 7,7 | 1 | 4 |
| Turkiya | 0,8 | 2,0 | 5,7 | 6,3 | 4 | 5 |
| Litva | - | 1,6 | - | 5,0 | - | 6 |
| Qozog‘iston | 1,3 | 1,3 | 9,5 | 4,0 | 3 | 7 |
| Germaniya | 0,3 | 0,9 | 2,4 | 2,7 | 7 | 8 |
| BAA | 0,5 | 0,5 | 3,9 | 1,4 | 5 | 9 |
| Vietnam | - | 0,4 | - | 1,2 | - | 10 |
| Estoniya | - | 0,3 | - | 1,0 | - | 11 |
| Hindiston | - | 0,3 | - | 1,0 | - | 12 |

## Xizmatlar importi tarkibi, (%)




Xizmatlar importi hajmi 1,8 mln. AQSh dollarini yoki jami import hajmining 5,6 %ini tashkil etdi va o'tgan yilning shu davriga nisbatan 2,9 karraga o'sdi. Xizmatlar importi tarkibining asosiy ulushi boshqa ish yuzasidagi xizmatlar (71,6 %) va texnik xizmat ko'rsatish va ta'mirlash xizmatlari (18,0 %)dan iborat bo'ldi.

Shu bilan birga ta'kidlab o'tish kerakki, respublikaga import qilinayotgan tovar va xizmatlar yanvar oyida, dekabr oyiga nisbatan 6,9 mln. AQSh dollarga kam import qilingan bo'lib, shundan tovarlar 7,6 mln. AQSh dollarga kam import qilingan bo'lib, xizmatlar 0,7 mln. AQSh dollarga ko'p import qilingan.

## Respublika importida asosiy hamkor davlatlarning ulushi
*(yanvar)*

**2018 yil**




**2019 yil**




2019 yilning yanvar oyida respublikaga 25 dan ortiq xorijiy davlatlardan tovar va xizmatlar importi amalga oshirilgan. Shulardan 6 ta eng yirik bo‘lgan Rossiya Federatsiyasi, Xitoy Xalq Respublikasi, Koreya Respublikasi, Buyuk Britaniya, Turkiya va Litva hamkor davlatlaridan jami import hajmi 26,9 mln. AQSh dollariga teng. Bu esa umumiy import hajmining 85,1 %ini tashkil qiladi.

Yuqorida qayd etib o‘tilganidek, import tarkibida asosiy ulushni tashkil qilyotgan mashina va asbob-uskunalar, xizmatlar hamda oziq-ovqat mahsulotlari asosan qaysi davlatlardan respublikamizga olib kirilayotganlini quyidagi sxemalardan ko‘rish mumkin.

## Mashina va usbob-uskunalar import qilingan asosiy hamkor davlatlar

| DAVLAT NOMI | XITOY | BUYUK BRITANIYA | LITVA | KOREYA RESPUBLIKASI | GERMANIYA |
|---|---|---|---|---|---|
| MLN. AQSH DOLL. | 11,0 | 6,6 | 1,4 | 1,1 | 0,7 |

| | | | | | |
|---|---|---|---|---|---|
| O`TGAN YILGA NISBATAN, % | 3,8 b | 1328,6 b | 560,9 b | 65,5 b | 2,5 b |
| ULUSHI, % | 48,1 | 29,2 | 6,0 | 4,6 | 3,3 |

## Xizmatlar import qilingan asosiy hamkor davlatlar

| DAVLAT NOMI | KOREYA RESPUBLIKASI | ROSSIYA | BUYUK BRITANIYA | GOLLANDIYA | GERMANIYA |
|---|---|---|---|---|---|
| MLN. AQSH DOLL. | 0,9 | 0,4 | 0,3 | 0,1 | 0,04 |
| O`TGAN YILGA NISBATAN, % | - | 2,4 b | 66 | - | - |
| ULUSHI, % | 50,5 | 21,3 | 17,0 | 4,6 | 2,1 |

## Oziq-ovqat mahsulotlari import qilingan asosiy hamkor davlatlar

| DAVLAT NOMI | QOZOG‘ISTON | ROSSIYA | TURKMANISTON | XITOY |
|---|---|---|---|---|
| MLN. AQSH DOLL. | 1,1 | 0,2 | 0,2 | 0,1 |
| O`TGAN YILGA NISBATAN, % | 2,2 b | 5,8 b | - | - |
| ULUSHI, % | 67,9 | 14,0 | 13,2 | 4,9 |

Yurtimizda tashqi iqtisodiy faoliyatni rivojlantirish borasida amalga oshirilayotgan keng qamrovli islohotlar va dunyo mamlakatlari bilan olib borilayotgan mustahkam aloqalar natijasida mamlakatimizning eksport salohiyati oshib bormoqda.

Shuningdek, hukumatimiz tomonidan bir qator soliq, bojxona imtiyozlarining yaratilishi, ishlab chiqarishni modernizatsiya qilish va raqobatbardosh mahsulotlarni ishlab chiqarilishi milliy mahsulotlarimizni tashqi bozorlarda mustahkam o‘rin egallashlari uchun zamin yaratmoqda.

**Tashqi iqtisodiy faoliyat va savdo statistikasi bo‘limi**
**Tel.:71-230-82-06**